

Ibratli rivoyatlar

Anushervon hukmronligi davrida ikki darvish uning saroyiga kelibdi va ulardan biri baland tovush bilan:

— Yovuzlik ko‘rmayin desang yovuzlik qilma, — debdi.

Ikkinchisi:

— Yaxshilik qilgan kishi hamisha yaxshilik ko‘rgay! — debdi.

Anushervon amri bilan birinchisiga ming dinor, ikkinchisiga ikki ming dinor berishibdi. Bu holni ko‘rgan mulozim va nadimlar podshohdan: «Ikkalasining ham so‘zi bir ma‘noni ifodalaydi-ku, nega ikki xil mukofot berding?» deb so‘rashibdi.

Anushervon shunday javob beribdi:

-Biri yomonlikni madh etdi, ikkinchisi yaxshilikni. Yaxshilar bilan do‘stu hamsuhbat bo‘lishdan yaxshi va yomonlar bilan hamnishinu hamtovoq bo‘lishdan yomon ish bormi dunyoda.



Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

— Bolajonim, o‘z umrimni ilmu hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilmu hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirilgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat- hurmat, shon-sharaf ilmida. Ilm, orqasida qo‘lga kiritgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

-O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va sig‘inishadi. Obidalar va ma’budalar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

-Otangning ilmi bo‘lmaganda, uning podshohlar uchun kitob yuklangan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig‘inadigan va xizmatni bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang ilm orttir!

**Muhammad Avfiyning
“Ibratli rivoyatlar” kitobidan**